O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI HUZURIDAGI SUDLAR FAOLIYATINI TA’MINLASH DEPARTAMENTI TOSHKENT VILOYAT HUDUDIY BO‘LIMI BOSHLIG’INING

8/1-sonli

BUYRUG’I

2025-yil 14-mart Toshkent sh.

Doimiy ishchi guruh tuzish va tarkibini tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-apreldagi PQ-2872-sonli "O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti ishini tashkil etish to‘g‘risida"gi qaroriga binoan,

BUYURAMAN:

1. Sudlar faoliyatini ta’minlash departamentining Toshkent viloyat hududiy bo‘limi tomonidan xaridlar (asosiy vositalar, tovar moddiy boyliklar, ishlar, xizmatlar va boshqalar)ni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to‘g‘risida"gi 2021 ytl 22 apreldagi O‘RQ-684-sonli Qonuni talablariga qat’iy amal qilishi belgilab qo‘yilsin.
2. Xarid qilingan asosiy vositalar, tovar moddiy boyliklar, ishlar, xizmatlarni shartnomada ko‘rsatilgan parametrlarga mos kelishi ya’ni soni, sifati va boshqa xususiyatlarini o‘rganib qabul qilib olish ishlarini amalga oshiruvchi doimiy ishchi guruh tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. O‘rganish jarayonida zarurat bo‘lganda, ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor tashkilotlardan va yuqori turuvchi tashkilot mutaxassislarini jalb etish belgilab qo‘yilsin.
4. Xarid qilingan asosiy vositalar, tovar moddiy boyliklar, ishlar, xizmatlarning soni, sifati va boshqa xususiyatlari shartnomada belgilangan parametrlarga mos kelmagan taqdirda ishchi guruh tomonidan kamchiliklarni ko‘rsatgan holda dalolatnoma rasmiylashtirilsin.
5. Toshkent viloyat hududiy bo‘limining 2024-yil 11-dekabrdagi 39-um-sonli buyru‘i o'z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
6. Mazkur buyruqni bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Bo‘lim boshlig‘i **R.F.Furqatov**

Toshkent viloyat hududiy bo‘limi boshlig‘ining
2025-yil 14-martdagi 8/1-sonli buyrug‘iga ilova

Ishchi guruh rahbari
Hududiy bo‘lim bosh hisobchisi N.T.Xakulov

A’zolari:

Bosh mutaxassis A.A.Mirzaev

Bosh muhandis A.A.Usmanaliyev

Bosh muhandis A.X. Tilovov

Xo‘jalik mudiri U.A.Avlayev

Hisobchi-g‘aznachi Sh.M.Baxrillayev